

**ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” ASARIDA INSONIY
XUSUSIYATLARNI IFODALOVCHI SO’ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI**

Yo’ldoshev Ibrohim Jo’rayevich

*Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika
universiteti Filologiya fakulteti “O’zbek tili va
adabiyoti” kafedrasi filologiya fanlari doktori, professor.*

E-mail: ibrohimiuldashev0101@gmail.com

Eshmurzayeva Nafisa Fayzulla qizi

*Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika
universiteti Filologiya fakulteti O’zbek tili va
adabiyoti yo’nalishi 1-bosqich talabasi.*

E-mail: isoqovayulduz1@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o’zbek adabiyoti va butun turkiy dunyo faxri, xamsanavislikning buyuk namoyondasi hisoblangan Mir Alisher Navoiyning “Xamsa” asarining yakunlovchi va, albatta, hajman eng yirik epik dostoni “Saddi Iskandariy” [“Iskandar devori”] asarida ayrim insonlarning tabiati va ruhiyat qirralari mazmuniy hamda ifodaviy jihatidan tahlil qilinadi. Navoiy ushbu dostonida o’zi va boshqalar uchun yetuk, mukammal bo’lgan shoh obrazini, Iskandar orqali boshqalarga yetkazishni maqsad qilgan va Iskandarni ta’riflash davomida so’zlardan shunday foydalanganki, durlar navbat-navbat marjonga terilganga o’xshaydi. Shuningdek, bu maqolada “Saddi Iskandariy” asaridagi shaxslarning o’ziga xos bo’lgan bir qancha tavsiflarni, jumladan, inson o’zida qanday yaxshi jihatlarni jamlashi lozimligi, qanday o’ziga mos xarakterlar orqali yetuklikka, mukammalikka yetishi haqida so’z boradi. Doston shunchaki tarixiy voqealar bayoni emas, balki ideal jamiyat va mukammal inson haqidagi falsafiy qarashlarni ham o’zida mujassam etadi. Ta’kidlash joizki, Hazrat Navoiy “Saddi Iskandariy” asarida nafaqat Iskandar Zulqarnaynning xislatlari-yu odatlarini, balki boshqa odamlarni ham ta’riflab, ularga tasnif berib, ularni ham ruhlantirib borgan. Mazkur maqolada odomzodning ma’naviy olamiga xos fazilat va belgilarning leksik hamda semantik tahlili asosida shaxs mohiyatining chuqur talqini ochib beriladi.

Kalit so’zlar: Alisher Navoiy, “Saddi Iskandariy”, semantik tahlil, leksik tahlil, so’z boyligi, lingvistik tahlil, majoziy ma’no.

Annotation: This article provides a substantive and expressive analysis of the facets of human nature and psychology of certain characters in "Saddi Iskandariy" ["The Wall of Alexander"], the final and undoubtedly the largest epic poem of Alisher Navoi's "Khamsa," which is a pride of Uzbek literature and the entire Turkic world, as well as a great masterpiece of the quintet form. In this poem, Navoi aimed to convey, through the image of Iskandar [Alexander], the ideal of a mature and perfect ruler for himself and for others. In describing Iskandar, he used words in such a way that they resemble pearls strung one after another.

Furthermore, the article examines several descriptions characteristic of the characters in "Saddi Iskandariy," including what virtuous qualities a person should embody and what inherent traits are necessary to achieve maturity and perfection. The poem is not merely a narrative of historical events but also embodies philosophical views on an ideal society and the perfect human. It is worth emphasizing that in "Saddi Iskandariy," His Excellency Navoi not only described the qualities and habits of Iskandar Zulqarnayn but also characterized and classified other people, inspiring them as well. This article reveals a profound interpretation of the essence of personality based on a lexical and semantic analysis of the virtues and traits inherent in the human spiritual world.

Keywords: Alisher Navoi, "Saddi Iskandariy", semantic analysis, lexical analysis, lexical richness, linguistic analysis, figurative meaning.

Аннотация: В данной статье проводится содержательный и экспрессивный анализ граней человеческой натуры и психологии некоторых персонажей в завершающем и, бесспорно, самом крупном по объёму эпическом произведении «Хамсы» Алишера Навои — «Садди Искандарий» [«Стена Искандера»], который является гордостью узбекской литературы и всего тюркского мира, а также великим образцом пятерицы. В этой поэме Навои через образ Искандера ставил целью донести до других идеал зрелого, совершенного правителя для себя и для окружающих, и при описании Искандера он использовал слова таким образом, что они подобны жемчужинам, нанизанным одна за другой. Кроме того, в статье рассматриваются присущие персонажам «Садди Искандарий» многочисленные описания, в том числе речь идет о том, какие благородные качества должен в себе совмещать человек, и какими характерными чертами необходимо обладать, чтобы достичь зрелости и совершенства. Поэма является не просто изложением исторических событий, но и воплощает в себе философские взгляды об идеальном обществе и совершенном человеке. Следует подчеркнуть, что в «Садди Искандарий» Его Высочество Навои описывал не только качества и привычки Искандера Зулькарнайна, но и давал характеристику и классификацию другим людям, также вдохновляя их. В настоящей статье на основе лексического и семантического анализа свойственных духовному миру человека добродетелей и черт раскрывается глубокая интерпретация сущности личности.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Садди Искандарий», семантический анализ, лексический анализ, лексическое богатство, лингвистический анализ, переносное значение.

Insoniyat qadimdan shaxsning ma'naviy olamini, ma'naviy-axloqiy qiyofasini, uning fazilatlari va ichki kechinmalarini asrlar davomida o'rganib borgan. Har bir davr adibi o'z asarlari orqali, insonning tabiati, dunyoqarashi jamiyatdagi o'rnini turlicha talqin qilgan. Shuningdek, o'zbek mumtoz adabiyotida, inson qadriga, shaxsiga nisbatan e'tibor yuksak darajada bo'lib, bunday yo'nalishida yozilgan asarlar xalq qalbidan joy olgan va xalq ma'naviyatining ajralmas qismiga aylangan, shunday bebeho va ajoyib asarlaridan biri Alisher

Navoiy qalamiga mansub “Saddi Iskandariy” dostoni bo’lib, unda inson kamoloti qadr-qimmat, saxovati, sadoqati, ilmi va sabri chuqur falsafiy va, albatta, badiiy tahlil orqali ko’rib chiqilgan. Asarda Iskandar obrazida nafaqat shoh va tarixiy shaxsni ko’ramiz, balki Navoiy bu obraz orqali o’zi xohlagan mukammal insonni gavdalandirgan. Har bir shaxsni ma’naviy komillikka intilish yo’lini axloqiy tozalik va ezgulik g’oyalarini o’ylab topgan va ilgari surgan. Shunday ekan, bu asarni o’qishimiz davomida o’zimizga zarur bo’lgan axloqiy tarbiyalarni olishimiz zarur. Mavzuning asosiy dolzarbligi shundaki, bugungi kunda adabiyotshunoslik va tilshunoslik sohalarida badiiy matnning lingvistik tahlili ya’ni so’zlarni to’g’ri tahlil qilish, ularning ma’no qatlamlarini ochish, so’zlarni tahlil qilayotganda leksikologiyaga asosiy e’tiborni qaratish muhim masalaga aylanib qolgan. Shuning uchun ham maqolada “Saddi Iskandariy” asari misolida insonga xos xususiyatlarning leksik-semantik jihatdan tahlili amalga oshirildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” asaridagi insonning ijobiy fazilatlarini ifodalovchi so’zlar tizimini o’rganish, ularning ma’no xususiyatlarini tahlil qilish, bu asarda qanday kishilarning tilga olinganligini ko’rish, shunday shaxslar nima uchun “Saddi Iskandariy” asarida uchraganligini bilish va ularni badiiy til orqali ma’naviy obrazini yoritishdan iborat. Shu orqali asarning badiiy va falsafiy ahamiyati yanada chuqurroq ochib beriladi. Tadqiqot natijalari o’zbek tilining boy leksik zaxirasini yanada chuqurroq bilishga, Navoiy asarlarida inson fazilatlarining ifoda vositalarini ochib berishga xizmat qiladi.

Kirish qismida aytib o’tilgandek, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida inson fazilatlarini chuqur falsafiy ma’noda yoritiladi. Insonlarning xususiyatlari, badiiy ifodasini tasvirlashda qanday lingvistik yondashuvdan foydalanganligi tahlil qilinadi. Asarda o’z shakli, ishlatilish o’rni va, albatta, ma’no-mazmuni jihatdan ajralib turgan masnadnishin atamasi haqida so’z borar ekan, ushbu so’z arab-fors tilidan o’zlashgan bo’lib, “yuqori o’rniga o’tiruvchi”, “taxtga o’tiruvchi” ma’nolarini bildirgan. Navoiy o’z asarida bunday kishilarni haqiqiy sabr-bardosh egalari sifatida maqtab o’tgan. Navoiy bu so’zni “Saddi Iskandariy” dostonining muqaddimasida, ya’ni Payg’ambar madhiga bag’ishlangan qismida ishlatgan:

“Qilib Haq ani sayiddal-mursalin,
Risolat uza bo’ldi masnadnishin”⁵³.

Bu baytda Navoiy masnadnishin so’zini metaforik ma’noda ishlatgan. Semantik jihatdan tahlil qilinganda esa payg’ambarlik lavozimi “taxtga o’xshatish” orqali ulug’lash maqsadida ishlatilgan.

Bunday tashqari, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni, IX bob “Chin mulkiga yurish” qismida quyidagi misra mavjud:

“Yurub Chin’a bolg’onda masnadnishin,
Kamar bog’lab ollinda Xoqoni Chin.”⁵⁴

Bu misrada Navoiy masnadnishin so’zini taxt egasi, hukmdor ma’nolari ishlatgan bo’lib Iskandarning Chin [Xitoy] podshosiga qarshi yurish vaqtidagi holatini ifodalaydi.

⁵³ Alisher Navoiy .Mukammal asarlar to’plami VIII jild .Xamsa Saddi Iskandariy –T.:Fan nashriyoti 1985 511b.

⁵⁴ Alisher Navoiy .Mukammal asarlar to’plami . XX tomlik. X tom . Xamsa . Saddi Iskandariy – T.:Fan nashriyoti . 1987-yil .

Endi esa “Payg’ambar” so’zining o’zi leksik-semantik jihatdan tahlil qilinadi. Bu so’zni Navoiy nafaqat “Saddi Iskandariy” dostonida balki butun bir dostonlarida ishlatib, o’z asarini Allohga hamdlar aytish bilan boshlagan. Payg’ambar so’zi fors tilidan kirib kelgan bo’lib, “payg’am”- xabar, yangilik, vahiy “bar” – keltiruvchi, olib boruvchi ma’nosini bildirgan va xudodan bandalarga xabar keltiruvchi deb hisoblangan. Arab tilida bu so’zning to’g’ridan-to’g’ri muqobili sifatida – “nabi” yoki “rasul” atamaları ishlatilgan. Ammo Alisher Navoiy asasarida, xususan, “Saddi Iskandariy” asarida forscha shakl – payg’ambar tarzida ishlatilgan, chunki doston forsiy va arabiy leksikasi asosida yozilgan. Navoiy bevosita arab-fors diniy leksikasidan foydalanib payg’ambarni “Rasul” sifatida tilga oladi. Misol tariqasida “Munojot” asarining na’t bo’limida ya’ni payg’ambar madhi bo’limida shunday deyilgan:

“Xabibi Xazrati ilox Muhammad Rosulloh sallallohi alayxi vasallamdur.”

“Allohning aziz sevgilisi, Hazrat Muhammad Rasululloh (Alloh unga salovat va salom yo’llasin.)”⁵⁵

Endi e’tiborimizni so’z ma’nosining ijtimoiy va axloqiy kontekstdagi salbiy jihatlarni ifodalovchi aybular so’ziga qaratiladi. Bu so’z kelib chiqish tarixiga ko’ra, arab-fors tillariga borib taqaladi va “ayb axtaruvchilar”, “kamsituvchilar” ma’nolarini bildiradi. Hozirgi iboralardan biriga ya’ni “timoq ichidan kir axtaruvchilar” iborasiga aynan mos keladi. Ayni vaqtda “aybju” so’zi o’zgargan ma’noda ya’ni “aybju” so’zidagi “ju” qo’shimchasi o’rniga “dor” so’z yasovchi qo’shimchasi qo’shilgan va “ayb+dor” ya’ni yangi so’z hosil bo’lgan.

Hozirgi leksik tahlilga qilayotgan so’zimiz Navoiy asarlarida boshqa kishilarga ishlatilgan bo’lsa, ayni damda eng chiroyli, betakror bo’lgan qizlar ismi uchun ishlatiladi. Bu so’z mushtariy so’zi bo’lib, Navoiyning “Saddi Iskandariy” asarida “sotib oluvchi”, “xaridor” va “yupiter planetasi” degan ma’nolarni bildirsa, forscha nomi “birjis” bo’lib, munajjimlar bu sayyorani “Saddi Akbar” va “Falak qozisi” joyi oltinchi falakda deb hisoblashadi. Saddi Iskandariy asarida shunday keltirilgan:

“Bo’lib yaxshilikka munur axtare,
Xaridor, ya’ni deyin Mushtariy.”⁵⁶

Bu jumlada insonning axloqiy yo’l va fazilatlarni izlash, ma’naviy nurga intilish xususiyati ta’kidlanadi.

Munir so’zi arabcha kelib chiqib, “yorqin, nurli” degan ma’nolarni bildiradi, shuning uchun bu yerda yaxshilik yorqin, ko’rgazmali xususiyat sifatida ifodalangan. “Mushtariy” so’zi bu kontekstdagi axloqiy xaridorlik ro’lini

ya’ni yaxshilikni izlash va qadrlashni bildiradi. Mushtariy so’zi orqali yaxshilikni izlovchi va qadrlovchi inson obrazi tahlil qilindi va endi esa buning aksi bo’lgan, to’g’ri yo’ldan adashgan shaxsni ifodalovchi gumroh

so’zining leksik tahliliga murojaat qilinadi. Fors tilidan kirib kelgan bu so’z “yo’lini yo’qotgan, yo’ldan ozgan”

⁵⁵ Alisher Navoiy Mukammal asarlar to’plami Munojot (S.G.Ganieva tahrir) 1991-yil – T.: Kamalak (PDF.ZiyoUZ).

⁵⁶ Alisher Navoiy .Mukammal asarlar to’plami .Xamsa .Saddi Iskandariy IV jild – T.: Fan nashriyoti 1985-yil

degan ma'nolarni bildirib, Navoiy bu so'zni nafaqat " Saddi Iskandariy " dostonida, balki " Lison ut-tayr "

[Qush tili] asarida ham chiroyli qilib qo'llanilgan.

"Dedi Qumrikim- "Ayo farxundaroy

G'aflatu gumrohlarga rahnamoy." ⁵⁷

Bu misrada shoir Qumri qushi obrazini donolik va haqiqat yo'lini ko'rsatuvchi timsol sifatida tasvirlaydi. U "farxundaroy" ya'ni baxtli, muborak zot deb murojaat qilayotgan shaxsni g'aflat va gumrohlikda qolganlarga

Dedi:"ul gumrohni sudrab kelturung,

Xizmatiga etkurub bo'ynin uzun." ⁵⁸ (Lison ut-tayr)

Ushbu baytda Navoiy tasavvufiy g'oyasini ilgari suradi. "Gumroh – ma'naviy yo'lini yo'qotgan inson "xizmatiga etkurub bo'nin urung" esa uni tarbiya qilib, nafsini yengishga da'vat etish ramzidir. Shoir bu orqali insonni ruhiy poklanish va ma'rifat yo'lga qaytishga chorlaydi. " Gumroh " so'zi orqali Navoiy adashgan, ma'naviy yo'lni topa olmagan inson obrazini yoritgan bo'lsa, shu fikrning mantiqiy davomida "nabiy" so'zini keltirib, bu safar Haq yo'lini ko'rsatuvchi, insoniyatini g'aflatdan uyg'otuvchi payg'ambarlar timsoli ifodalandi. Navoiy asari muqaddimasida nabiy so'zini shunday izohlaganki, o'qib shunchaki lol qolasan. u shunday deydi:

"Nabiylik nishoni shunday nishonki, quyosh nuriga, yulduz nixon bo'lgani singar, uning naqshlari sening ulug'vor yelkang to'sib turadi. Uni yulduzga ham tenglashtirib bo'lmaydi, u Allohning qudrati qo'llari bilan xukm xati bitilgan uzukdir." ⁵⁹

Navoiy nafaqat "nabiy " so'zini " Saddi Iskandariy " asarida ishlatgan, balki " Lison ut- tayr " asarida ham chiroyli misralar ila ishlatib o'tgan:

"Har nabiykim yo'l ko'rsatadi xalqqa rahmat ila,

Anbiyolardur bu yo'lining rahnamosi rahbari." ⁶⁰

Navoiy o'z asarida shunday noyob va ulug'vor so'zlardan foydalanganki, asarni o'qish davomida nafaqat asarga balki so'zlarning tarjimasiga ham qiziqib borar ekansan. Shunday so'zlardan biri, ya'ni o'z tarjimasiga bilan ajralib turgan so'z "zuhd" yoxud "zuhdular" so'zi bo'lib, kirib kelish tarixiga ko'ra, arab tilidan o'zlashtirilgan bo'lib, Navoiy asarida "dunyodan voz kechib, toat-ibodat bilan shug'ullanish bu ishlar bilan o'zini riyokorona mashg'ul ko'rsatish, zuhdu axli yoxud zuhdular- dunyodan voz kechuvchilar, darveshlar", degan ma'noda ishlatgan. Bu so'z tasavvufda ruhiy poklanish, nafsni tiyish va Allohga yaqinlashish yo'lida dunyo manfaatlaridan uzoq turish ma'nosida ishlatiladi. Adabiyotda, ayniqsa Navoiy ijodida, "zuhd " insonning kamtalab, sabrli, Alloh roziligi uchun yashovchi shaxs sifatidagi ma'naviy holatini

⁵⁷ Alisher Navoiy asarlari to'plami XV tom .G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti -T.: 1972
Tuzuvchi : Porso Shamsiyev . (O'zbekistonda xizmat ko'rgan fan arbobi filologiya fanlari doktori).

⁵⁸ Navoiy asarlari lug'ati . -T: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti , 1972- yil

⁵⁹ Alisher Navoiy . Mukammal asarlar to'plami XVIII jild . Xamsa . Saddi Iskandariy – T.: Fan nashriyoti 1985-yil 520b .

⁶⁰ Alisher Navoiy .Mukammal asarlar to'plami . Lison ut-tayr –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyoti va sa'nat nashriyoti 1983- yil – " Anbiyo zikr " bobidan .

ifodalaydi. Navoiyning “ Saddi Iskandariy ” asarining muqaddimasida ham zuhd so’zi bevosita tilga olinmagan:

“ Zuhd ila ziynat topgan olimlar,

Fikr ila dunyo sirrin anglag’ onlar.” ⁶¹

Bu bayt orqali Navoiy, ilmini ruhsiz shakli yetarli emas, haqiqiy ilm taqvo va zuhd bilan uyg’unlashgandagina insonni kamolotga eltadi, degan fikrni ilgari suradi va chin olim faqat kitob bilmiga ega emas, balki zuhd [taqvo] bilan ziynatlangan, ruhiy kamolotga erishgan inson demakdir. Bundan tashqari Navoiy “ Saddi Iskandariy ” asarida zuhd ahli yoxud zuhdular haqida ham yozib o’tgan:

“Zuhd ahli chu dunyodin ko’ngul sindi,

Nafs o’tin so’ndurub, ruhin zindi.” ⁶²

Bu baytda Navoiy “ zuhd ahli – ya’ni taqvador, dunyo lazzatlaridan voz kechgan solih insonlar haqida so’z yuritadi. Ularning ko’ngli dunyoviy nafs va hirsdan tozalanib, ruhiy komolot sari yo’nalgan. Shoir “ nafs o’tin so’ndurib ” iborasi orqali insonni ich-ichidan yoqib yuboruvchi nafs olovini so’ndirishini, ya’ni o’zini tuta bilish, sabr, tavba va ibodat orqali ruhini tiriltirishini nazarda tutadi. “ Ruhin zindi ” iborasi esa ruhiy uyg’onish, ma’naviy tirilish ma’nosini beradi. Navoiy bu orqali insonni poklik, sabr va zohidlikka undaydi. Navoiy arab tilidan o’zlashgan so’zlarni ishlatish davomida majusiy so’zini ham ishlatib, uni “otashparastlik diniga mansub kishi”, “otashparast” deya ta’riflagan. O’zbek tilining izohli lug’atida ham majusiylik so’zi ta’riflangan “Majusiylik- 1 zardushtiylikning musulmonlarda atalishi. 2 yakkaxudolik paydo bo’lgunga qadar vujudga kelgan diniy e’tiqodlar, marosim va bayramlarni ifodalash uchun ishlatiladigan atama. “M’ tushunchasi sehrgarlik, animizm, fetishizm, totemizm kabi ibtidoiy din shakllarini ham ifodalaydi.”⁶³

Navoiy bu so’zni “Saddi Iskandariy” asarida chiroyli misralar ila tolgan:

„Ko’rdi u nori majusiylar ichra,

Olovdan topganlar parvarish ichra.”⁶⁴

Bu misra orqali majusiylar so’zi otashparast ya’ni o’tga topinuvchi xalqni bildiradi. Navoiy bu obraz orqali insoniyat tarixida turli e’tiqodlar mavjudligini ko’rsatadi. Iskandar dunyo kezzagan chog’ida o’tni kuchi iloh deb biluvchi majusiylar halqi bilan uchrashadi. Shoir bu holatni keltirib, ularning e’tiqodi orqali „nur” va „haqiqat” tushunchalarini tamsil qiladi. Majusiylarning olovga sig’inishi tashqi nurni ifodalasa, Navoiy nazarida esa haqiqiy nur bu – Alloh nuri ya’ni ma’rifat nuri hisoblangan. Shuning uchun bu misra diniy falsafiy ramz sifatida juda muhim hisoblanadi. Majusiy so’zini nafaqat Navoiy asarida ishlatgan, balki, Firdavsiyning o’sha mashhur tarixiy, afsonaviy va qahramonlik voqealarini she’riy tarzda hikoya qilinadigan, eng buyuk epik dostoni „Shohnoma” da ham ko’rishimiz mumkin. Firdavsiy ham Navoiy singari qalamini sekin tebratgan holda shunday nafis misralarni bitgan:

⁶¹ Alisher Navoiy .Mukammal asarlar to’plami .Xamsa . Saddi Iskandariy . –T.: 1991 XI tom .

⁶² Alisher Navoiy . Mukammal asarlar to’plami , Saddi Iskandariy XI tom .- T.: Fan nashriyoti 1991-yil 245b.

¹¹Izoh . uz . – o’zbek tilining izoxli lug’ati 2025 .

⁶⁴ Alisher Navoiy . Mukammal asarlar to’plami , Saddi Iskandariy –T.: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti , 2020-yil -274b.

“Majusiylar o'tga sigar har dam,
Unda topgach, debdurlar, hayot davom.”⁶⁵

Firdavsiy bu misrada “majusiy ” atamasini Zardushtiylik e'tiqodidagi xalqlar uchun ishlatilganligini ko'rishimiz mumkin va ular o'tni hayot, tozalik va qudrat timsoli deb bilgan. Bu misra shuni ko'rsatadiki, majusiylar olov orqali ya'ni o'tga sig'inish orqali o'z hayotlarini ko'ra bilgan va o'sha uchta so'z “nur”, “olov” va “hayot” tushunchalari ular uchun o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi.

Hozirgi tahlilga o'moqchi bo'lgan so'zimiz, mursalin so'zi bo'lib, bu so'z arab tilidan kirib kelgan bo'lib, arsala [yubormoq] fe'lidan ilingan “mursal” [yuborilgan] so'zining ko'plik shaklidan yasalgan, shuning uchun, bu so'zning lug'aviy ma'nosi “yuborilganlar”, “elchilar” ya'ni Alloh tomonidan insonlarga yo'l-yo'riq ko'rsatish uchun yuborilgan payg'ambarlar hisoblanadi. Mashhur tilshunos olim Rog'ib isfahoniy o'zining “Al-Mufradat fi G'aribil Qur'on” lug'atida “arsala ” fe'lini Allohning bandalari orasidan payg'ambar yuborilishi ma'nosida izohlagan. Shu manbaga tayansak “mursalin ” so'zi Alloh yuborgan payg'ambarlarning umumiy nomi sifatida ishlatiladi. Qur'oni Karimda bu so'zlar bir necha joyda uchraydi. Eng mashhur oyatlardan biri:

“Salom bo'lsin yuborilgan (payg'ambar)larga.”⁶⁶

(As-sofat surasi, 181-oyat.)

Bu oyatda mursalin so'zi Allohning elchilari – payg'ambarlarga nisbatan ishlatilgan. Shuningdek, Saba surasining 44-oyatida ham shu so'z ildizidan “arsala ” fe'li keltirilib, payg'ambar yuborish ma'nosini mustahkamlagan:

“Biz ularga hech qanday kitob tushurmadik va sendan oldin ularga ogohlantiruvchi yubormadik.”

“Saba, 44-oyat”

Shuningdek, tasvir olimi Imom Tabariy o'zining “Tafsir at-Tabari” asarida mursalin so'ziga shunday izoh beradi:

“Al-mursalin- ular Allohning kalomi xalqlarga yetkazuvchi, ularni hidoyatga chaqiruvchi payg'ambarlar demakdir.”

Bu izoh “mursalin ” so'zi Qur'ondagi payg'ambarlar obrazini anglatuvchi aniq tushuncha ekanini tasdiqlaydi. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy ” dostonining muqaddimasida ham “mursalin ” so'zi aniq va bevosita ishlatilgan:

“Qilib Haq ani sayyidal – mursalin,

Risolat uza bo'ldi masnadnishin.”⁶⁷

Bu baytda Alisher Navoiy buyuk Muhammad [s.a.v] zotini ulug'lab, ularni “sayyidal – mursalin” – ya'ni barcha elchilar [payg'ambarlar] ning sardori deb ta'riflaydi.” Saddi Iskandariy “dostonining kirish qismida shoir Iskandaarning hayotini tasvirlashda avval payg'ambarlar zikrini keltiradi. Bu tasvir Navoiy ijodidagi ilohiy-badiiy an'anaga mos: har bir asar Allohni zikr etish va payg'ambarlarni madh etish bilan boshlanadi. “Mursalin ” so'zining ishlatilishi va

⁶⁵ Firdavsiy .Shohnoma .-T.: tarjima nashriyoti , yozuvchi nashriyoti 1989-yil 112b

⁶⁶ Imom .Tabariy .”Tafsir at-Tabari ” XXIII jild 57b.

⁶⁷ Alisher Navoiy .Mukammal asarlar to'plami . Xamsa , Saddi Iskandariy –T.: Fan nashriyoti 1987-yil 12b .

asarga diniy-falsafiy yo'nalish beradi – ya'ni Iskandar obrazini oddiy sarkarda emas, ilohiy hikmat elchisi sifatida talqin qilishga tayyorlaydi. Payg'ambarlarning ilohiy missiyasi ularning mo'jizalari, vahiyalar orqali namoyol bo'lgan. Shu sababdan keyingi misrada Muso [a.s.] ga berilgan tavrotni tilga olib, ilohiy kalomlarning uzviy bog'liqligini, vahiy zanjirining davomiyligini ifodalaydi. Tavrot so'zi arab tilidan kelib chiqqan bo'lib, yaxudiylarning diniy kitobi [Muso payg'ambarga nozil bo'lgan deb hisoblaydi] Shoir tavrot so'zini asarning muqaddima qismida shunday misralar ichra tilga oladi:

“Chu Musog'a “Tavrot” etib Haq bayon,

Senga ul bayon ichra mujiz ayon.”⁶⁸

Navoiy “Tavrot ” so'zini bu yerda faqat diniy ma'noda emas, balki ma'naviy nur, ilohiy haqiqat va ilohiy kalomning timsoli sifatida ishlatgan. Shunday qilib, u payg'ambar Muso [a.s.] orqali insoniyatga yuborilgan ilohiy kitobni “bayon” [ya'ni ochiqlanish, kalom tarzida nozil bo'lish] deb ta'riflaydi. Baytdagi “Haq bayon etdi ” birikmasi Allohning vahiy tarzida kalomini nozil qilganini bildiradi. Shoirning bu yondashuvi “ Saddi Iskandariy ” dostonining umumiy g'oyasiga hamohang bo'lib, asarning asosiy qismida Iskandarning ilm, ma'rifat va ilohiy haqiqatni izlash jarayoni yotadi. Demak, “ Tavrot ” bu yerda ilohiy bilimlar manbai, inson tafakkurining yuksalish bosqichini ifodalovchi semantik yuklamaga ega ekan. Bu misrlarda “ Tavrot ” so'zi faqat diniy kontekstda emas, balki falsafiy va ma'naviy ma'noda ham ishlatilgan bo'lib, shoirning keng dunyoqarashi va ilohiy haqiqatga munosabatini yoritadi.

Alisher Navoiy ijodi, xususan, “Saddi Iskandariy” dostoni, o'zida insoniyatning ma'naviy va ruhiy kamolotini chuqur ifodalangan asardir. Asarda tilga olingan ko'plab so'zlar faqat leksik birlik sifatida emas, balki ma'naviy, falsafiy va axloqiy mazmuni mujassamlashtiruvchi timsollar hisoblanadi. Shoir ishlatgan har bir so'z – inson tafakkuri, e'tiqodi va ruhiy olamini yorituvchi kalit bo'lib xizmat qiladi. Asarda keltirilgan diniy va ma'naviy atamalar, jumladan, ilohiy vahiy, payg'ambarlik va haqiqatni ifodalovchi so'zlar, inson tabiatiga xos ezgu fazilatlar bilan bevosita bog'liq. Navoiy so'zning kuchi orqali insonni komillikka, ilm va tafakkurga, ruhiy poklikka da'vat etadi. Shu jihatdan, “Saddi Iskandariy nafaqat badiiy asar balki insoniyatni ma'naviy uyg'otuvchi, tafakkur va ezgulik sari yetaklovchi hikmatlar majmuasi sanaladi. Demak, asarda ishlatilgan so'zlarning leksik va semantik tahlili shuni ko'rsatadiki, Navoiy uchun so'z- bu ma'naviyat ko'zgusi, inson ruhining ifodasi va ilohiy haqiqatni yetkazuvchi vosita hisoblanadi. Shoirning badiiy mahorati, so'z tanlashdagi nozik didi, hamda ma'nolarni falsafiy teranlikda uyg'unlashtira olishi, uning asarlarini o'lmas ma'naviy xazina darajasiga ko'targan.

Foydalanilgan adabiyot

1. Navoiy asarlari lug'ati. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va sa'nat nashriyoti, 1972.-784 b.

⁶⁸ Alisher Navoiy .Mukammal asarlar to'plami . Xamsa , Saddi Iskandariy –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti V jild 1983 –yil.

2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. VIII jild. Xamsa, Saddi Iskandariy –T.: Fan nashriyoti, 1985.-511 b.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. XX tomlik, X tom. Xamsa, Saddi Iskandariy –T.: Fan nashriyoti. 1987.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar ro'yxati. Lison uy-tayr “Anbiyo zikr” bobidan –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va sa'nat nashriyoti, 1983.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Munojot[.G.Ganieva tahrir] –T.: Kamalak[PDF.ZiyoUZ.]
6. Firdavsiy. Shohnoma.-T.: Tarjima nashriyoti, yozuvchi nashriyoti, 1989.
7. Imom Tabariy. “Tafsir at-Tabari” XXIII jild
8. Izoh.uz.-o'zbek tilining izohli lug'ati, 2025.